

# **“Uy sovg‘alardan boshlanadi” marketing aksiyasini o‘tkazish qoidalari**

## **1. Umumiy qoidalar**

- 1.1. Ushbu Qoidalar “Uy sovg‘alardan boshlanadi” marketing aksiyasini o‘tkazish tartibi, shartlari va muddatlarini belgilaydi.
- 1.2. Aksiya tashkilotchisi — XATB Orient Finans.
- 1.3. Aksiya muddati: 2026-yil 20-martdan 2026-yil 20-dekabrgacha.
- 1.4. Aksiya bankning ipoteka kredit mahsulotlari savdosini rag‘batlantirish, berilayotgan ipoteka kreditlari hajmini oshirish, shuningdek yangi mijozlarni jalb qilish maqsadida o‘tkaziladi.

## **2. Aksiya ishtirokchilari**

- 2.1. Aksiya ishtirokchilari — aksiya davrida XATB Orient Finansda ipoteka krediti rasmiylashtirgan bank mijozlari bo‘lgan jismoniy shaxslar bo‘lishi mumkin.
- 2.2. Aksiya ishtirokchilari 18 yoshga to‘lgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari bo‘lishi mumkin.
- 2.3. XATB Orient Finans xodimlari, ularning yaqin qarindoshlari, shuningdek aksiyani tashkil etishda va o‘tkazishda ishtirok etgan shaxslar aksiyada ishtirok etish huquqiga ega emas.
- 2.4. Aksiyada ishtirok etish ishtirokchining ushbu Qoidalarga to‘liq roziligini anglatadi.
- 2.5. Aksiya shartlariga rioya qilinmagan taqdirda ishtirokchi sabablarini tushuntirmasdan aksiyadan chiqarib yuborilishi mumkin.

## **3. Ishtirok etish shartlari**

- 3.1. Aksiyada ishtirok etish uchun mijoz:
  - aksiya davrida ipoteka krediti rasmiylashtirishi;
  - yutuq o‘tkaziladigan sanada muddati o‘tgan qarzdorlikka ega bo‘lmasligi;
  - OFB mobil ilovasini yuklab olishi va identifikatsiyadan o‘tishi kerak.
- 3.2. Bitta kredit shartnomasi yutuqda faqat bir marta ishtirok etadi.
- 3.3. Bitta ishtirokchi butun aksiya davrida oraliq sovrinni faqat bir marta yutishi mumkin. Shu bilan birga, oraliq sovrin yutgan ishtirokchilar bosh sovrin yutuvida ishtirok etish huquqini saqlab qoladi.

## **4. Yutuq o‘tkazish tartibi**

- 4.1. Sovrinlar yutug‘i har bir bosqich yakunlari bo‘yicha XATB Orient Finans Komissiyasi a‘zolari ishtirokida o‘tkaziladi.
  - 4.2. Bosh sovrin yutug‘ida 20.03.2026 dan 20.12.2026 gacha quyidagi mahsulotlar bo‘yicha ipoteka krediti rasmiylashtirgan mijozlar ishtirok etadi:
    - “Oilaviy ipoteka”
    - “Foydali ipoteka”
    - “Ishonchli ipoteka”
    - “BASHKENT”
    - “MURAD BUILDING”
    - Ipoteka birlamchi bozor uchun
    - Ipoteka ikkilamchi bozor uchun
    - “Qulay refinanslash”
    - “Qulay ipoteka”
    - “Ipoteka birlamchi bozor uchun 2.0”
    - “INVEST ipoteka”
- Bosh sovrin yutug‘i 30.12.2026 gacha o‘tkaziladi — 1 g‘olib aniqlanadi.

- 4.3. Oraliq va bosh yutuqlar ishtirokchilari bosqichlar bo'yicha taqsimlanadi:  
1-bosqich – 20.03.2026 y.dan 20.05.2026 y.gacha – Yutuq 30.05.2026 y.gacha o'tkaziladi.  
2-bosqich – 21.05.2026 y.dan 20.07.2026 y.gacha – Yutuq 30.07.2026 y.gacha o'tkaziladi.  
3-bosqich – 21.07.2026 y.dan 20.09.2026 y.gacha – Yutuq 30.09.2026 y.gacha o'tkaziladi.  
4-bosqich – 21.09.2026 y.dan 20.11.2026 y.gacha – Yutuq 30.11.2026 y.gacha o'tkaziladi.  
5-bosqich – 21.11.2026 y.dan 20.12.2026 y.gacha – Yutuq 30.12.2026 y.gacha o'tkaziladi.

Bosh sovrin – 20.12.2026 — bosh sovrin avtomobil (1 g'olib)

Har bir bosqich bo'yicha g'oliblar soni va sovrinlar ro'yxati bank tomonidan sovrin fondiga muvofiq belgilanadi.

4.4. G'oliblar Random.org yoki shunga o'xshash tasodifiy sonlar generatori orqali aniqlanadi.

4.5. XATB Orient Finans aksiya ishtirokchilari bilan yozma muzokaralar yoki boshqa aloqalarga kirishmaslik huquqini o'zida saqlab qoladi, nizoli holatlar bundan mustasno.

4.6. Aksiyada ishtirok etish ishtirokchilarning ism-familiyasi, fotosuratlar va boshqa materiallari reklama maqsadlarida mukofotsiz foydalanilishiga rozilik berishini anglatadi.

4.7. XATB Orient Finans ushbu Qoidalarga o'z xohishiga ko'ra o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish huquqini o'zida saqlab qoladi, bu haqda [www.ofb.uz](http://www.ofb.uz) saytida 3 (uch) ish kuni oldin e'lon qiladi. Bank sovrinlar ro'yxati va miqdorini o'zgartirish yoki kengaytirish huquqiga ega. Bank ishtirokchilarga aksiyada ishtirok etish bilan bog'liq yuzaga kelgan zarar va xarajatlarni qoplamaydi.

4.8. XATB Orient Finans sovrindan foydalanish jarayonida g'olibning (hayoti) va sog'lig'iga, shuningdek uchinchi shaxslarning mol-mulkiga yoki sog'lig'iga yetkazilgan zarar uchun javobgar emas.

4.9. Ushbu aksiyani o'tkazishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha nizolar XATB Orient Finans va ishtirokchi o'rtasida o'zaro kelishuv va tushunish asosida muzokaralar yo'li bilan hal qilinadi. Kelishuvga erishilmagan taqdirda nizolar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq sud tartibida ko'rib chiqiladi.

4.10. XATB Orient Finans Random.org yoki shunga o'xshash dastur orqali asosiy g'olibni hamda qo'shimcha ravishda 2 ta zaxira nomzodni aniqlaydi.

4.11. Asosiy g'olib sovrinni olishdan bosh tortgan yoki belgilangan muddatda olmagan taqdirda sovrin birinchi zaxira nomzodga beriladi. Birinchi zaxira nomzod ham sovrinni olishdan bosh tortgan taqdirda sovrin ikkinchi zaxira nomzodga beriladi.

4.12. Agar asosiy g'olib va ikki zaxira nomzod sovrinni olishdan bosh tortsa yoki olmasa, Komissiya qaroriga ko'ra muqobil g'olib aniqlanadi.

4.13. Agar muqobil aniqlash natijasida ham sovrin berilmasa, Tashkilotchi sovrin topshirilgunga qadar qo'shimcha yutuq o'tkazish huquqini o'zida saqlab qoladi.

Aksiya natijalari bo'yicha Komissiya bayonnomasi tuziladi va barcha a'zolar tomonidan imzolanadi.

4.14. G'oliblarning ismlari XATB Orient Finans rasmiy saytida e'lon qilinadi, shuningdek OAV va ijtimoiy tarmoqlarda joylashtirilishi mumkin.

4.15. G'oliblarga XATB Orient Finans tomonidan SMS-xabarnoma yuboriladi yoki kredit rasmiylashtirilgan telefon raqami orqali bog'laniladi.

4.16. Ishtirokchi tomonidan aksiya shartlariga rioya qilinmagan oqibatlar uchun Tashkilotchi javobgar emas.

## 5. Sovrinlar fondi

- 5.1. Sovrinlar fondi XATB Orient Finans mablag'lari hisobidan shakllantiriladi.
- 5.2. Aksiya doirasida quyidagilar nazarda tutilgan:
- bosh sovrin — BYD YUAN UP avtomobili;
  - oraliq sovrinlar — maishiy texnika va elektronika:  
Samsung muzlatkich — 10 dona  
Kir yuvish mashinasi avtomat — 10 dona  
Samsung televizor — 10 dona  
Changyutgich — 10 dona  
Dyson havo tozalagich — 10 dona
- 5.3. Sovrinlarning aniq ro'yxati va soni XATB Orient Finans tomonidan belgilanadi.
- 5.4. Sovrinlarning pul ekvivalenti aksiya ishtirokchilariga to'lanmaydi.

## **6. Aksiyani o'tkazish**

- 6.1. XATB Orient Finans yozma muzokaralarga yoki boshqa aloqalarga kirishmaslik huquqini o'zida saqlab qoladi, nizoli holatlar bundan mustasno.
- 6.2. Aksiyada ishtirok etish ishtirokchilarning ism-familiyasi, fotosuratlari va boshqa materiallaridan reklama va axborot maqsadlarida mukofotsiz foydalanilishiga roziligini anglatadi.
- 6.3. XATB Orient Finans ushbu Qoidalarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish huquqiga ega, bu haqda [www.ofb.uz](http://www.ofb.uz) rasmiy saytida kamida 3 ish kuni oldin e'lon qiladi.
- 6.4. XATB Orient Finans sovrinlar ro'yxati va miqdorini o'zgartirish yoki kengaytirish huquqiga ega.
- 6.5. Aksiyani o'tkazish jarayonida yuzaga kelgan barcha nizolar muzokaralar yo'li bilan, kelishuvga erishilmagan taqdirda esa O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq sud tartibida hal qilinadi.

## **7. Sovrinlarni olish tartibi**

- 7.1. Sovrinlar XATB Orient Finansda quyidagi manzilda beriladi: Toshkent shahri, Osiyo ko'chasi, 5, yoki bankning boshqa bo'limida.
- 7.2. Sovrinni olish uchun g'olib pasportining asl nusxasini taqdim etishi shart.
- 7.3. Sovrin topshirilishi qabul-topshirish dalolatnomasi bilan rasmiylashtiriladi.
- 7.4. Sovringa egalik huquqi sovrin topshirilgan paytdan boshlab g'olibga o'tadi.
- 7.5. Sovrinlar topshirilishi ommaviy tadbir shaklida OAV ishtirokida o'tkazilishi mumkin.

## **8. Ishtirokchilarni xabardor qilish**

- 8.1. Aksiya ishtirokchilarini xabardor qilish quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:
- reklama materiallarini joylashtirish;
  - bank ijtimoiy tarmoqlarida e'lon qilish;
  - bank rasmiy saytida joylashtirish.
- 8.2. Batafsil ma'lumot [www.ofb.uz](http://www.ofb.uz) saytida joylashtiriladi.
- 8.3. Qo'shimcha ma'lumotni bankning ishonch telefoni orqali olish mumkin: (+998 71) 200-88-99, 4004.

## **9. Yakuniy qoidalar**

- 9.1. XATB Orient Finans ushbu Qoidalarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish huquqini o'zida saqlab qoladi.
- 9.2. Aksiyada ishtirok etish ishtirokchining o'z ism-familiyasi, fotosuratlari va boshqa ma'lumotlaridan reklama maqsadida foydalanishga roziligini anglatadi.
- 9.3. Barcha nizolar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq hal qilinadi.